



SCIENTIFIC-PRACTICAL PROBLEMS OF JUDICIAL INDEPENDENCE

Bahodirov Shahzod Ortiq o'g'li

Master's Student of Tashkent State Law University

e-mail: boxodirovshaxzod149@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17571484>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025

Accepted: 09th November 2025

Online: 10th November 2025

KEYWORDS

*Judicial independence,
international experience,
constitutional status and laws.*

ABSTRACT

This article provides information on the independence of the judiciary in the Republic of Uzbekistan, its constitutional status and guarantees, as well as international experience.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕЗАВИСИМОСТИ СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ

Баходиров Шахзод Ортик угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

e-mail: boxodirovshaxzod149@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17571484>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025

Accepted: 09th November 2025

Online: 10th November 2025

KEYWORDS

*Независимость судебной
власти, международный
опыт, конституционный
статус и законы.*

ABSTRACT

В данной статье предоставлена информация о независимости судебной власти в Республике Узбекистан, её конституционном статусе и гарантиях, а также о международном опыте.

SUD HOKIMIYATI MUSTAQILLIGINING ILMIY-AMALIY MUAMMOLARI

Bahodirov Shahzod Ortiq o'g'li

Toshkent Davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: boxodirovshaxzod149@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17571484>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025

Accepted: 09th November 2025

Online: 10th November 2025

KEYWORDS

*Sud hokimiyati mustaqilligi,
xalqaro tajribalar
konstitutsiyaviy o'rni va
qonunlar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbekiston respublikasida sud hokimiyati mustaqilligi, uning konstitutsiyaviy o'rni va kafolatlari shuningdek xalqaro tajribalar to'g'risida malumot berilgan.



Kirish: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyatimizning rivoji hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda, jamiyatda qonuniylik va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasida sudyalarning mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo'ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi muhim normalar mustahkamlab qo'yilgan.

Muhokama va natijalar: Ta'kidlash joizki, sudyalarning mustaqil va faqat qonunga bo'ysungan holda ish yuritishlarining konstitutsiya darajasida kafolatlanishini asosiy sabablaridan biri – sud hokimiyatiga boshqa hech qaysi organ vakolatiga taalluqli bo'lmagan huquq – odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilganligi bilan izohlanadi. Zero, mamlakatimiz hayotida, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlashning erishishda odil sudlovning ahamiyati beqiyosdir. Odil sudlov jamiyat hayotida, jamiyat a'zolarini huquqiy madaniyatini va huquqiy ongini yuksaltirishda, insonlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda odil sudlov har qaysi davrlarda ham ulug'langanligini, qadrlanganligini hamda inson intilib yashaganliklarini ta'kidlas o'rinli bo'ladi. Xususan, rim faylasuflari *"Pereat mundus et fiat justitia"*, ya'ni *"mayli dunyo barbod bo'lsin, lekin odil sudlov qaror topsin"* deb ta'kidlashganliklari bejiz emas. Rim faylasuflarining mazkur mumtoz shiorlari bir qarashda mubolag'adan iborat bo'lsa-da, lekin ular odil sudlovga shu qadar yuqori baho beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2016 yilning 21 oktabrida e'lon qilingan PF-4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishiga doir konstitutsiyaviy normani amalda to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga zamin yaratdi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"da sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar nazarda tutili. Xususan, sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddatini va shundan so'ng muddatsiz davrni belgilash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi negizida sud hokimiyati organi sifatida Sudyalarning oliy kengashini tashkil qilish, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish mexanizmini, shu jumladan, uning asoslarini aniqlashtirish orqali takomillashtirish va sud raislarining sudyalarga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atishga oid vakolatini tugatish, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi adliya organlarining umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyatini moddiy-texnika jihatdan va



moliyaviy ta'minlash sohasidagi vazifa va vakolatlarini o'tkazish kabilar nazarda tutiladi. Istiqloqlarning dastlabki yillarida Konstitutsiyada nazarda tutilgan. Sudlar mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishining ta'minlashda Harakatlar strategiyasida belgilanganidek, sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddatini va so'ng muddatsiz davrning belgilanilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki sudya lavozimida bo'lishning ushbu tartibi sudyadan zimmasiga yuklatilgan vazifani namuna'vi darajada bajarishini talab etishi bilan bir qatorda lavozimiga keyingi muddatga qayta saylanish yoki tayinlanish, o'z vazifalarini namunali ado etgach, keyinchalik o'n yilga va hatto muddatsiz davrga saylanishi yoki tayinlanishini uchun rag'batlantiruvchi qoida ham hisoblanadi. Sudya lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshini, ya'ni tuman va viloyat sudlari sudya lavozimlarining 65 yoshgacha, Konstitutsiyaviy va Oliy sud sudyalari lavozimlarini – 70 yoshgacha belgilash sudyalarning mustaqil-ligini kafolatlash bilan bir qatorda mamlakatimizda professional sudyalar korpusini shakllantirishga, sud tizimini yetuk, yuqori malakali, odil sudlov sohasida katta tajribaga ega bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan, halol va beg'araz obro'-e'tiborli sudyalar bilan to'ldirishga, ularning boy tajribalaridan keng foydalanishga hamda barqaror sudyalar maktabining yaratilishiga zamin yaratadi. Qolaversa, sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmoqlaridan holi bo'lishiga xizmat qiladi. sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan qator qonunlarimiz qabul qilindi. 1994 yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda 1997 yilda qabul qilingan Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslarini, "Sudlar to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlarini va Hukumat qarorlarini keltirish mumkin. Biroq mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgan davlatimizning zamonaviy taraqqiyot sari su'r'atlar bilan shoshilinch uchun mutlaqo yangicha sharoitlarda hamda tamoyillarni ishbilarmonlik va ro'yobga chiqishning muhim omili sifatida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich belgilanishi hayotiy zaruratga aylandi zamonaviy konstitutsiyaviy davlatlarda sud hokimiyati mustaqilligi hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslanib, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari hokimiyatning uchta alohida tarmog'ini o'zida namoyon qiladi. Hokimiyatni suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan o'zaro tiyib turish va muvozanatda saqlash tizimini hosil qiladi. Mustaqillik prinsipi – sud hokimiyati konstitutsiyaviy institut sifatida, aniq bir ish bo'yicha qaror qabul qilayotgan sudyalar esa ijro, qonun chiqaruvchi hokimiyatlar va boshqa organlar tomonidan hech qanday tashqi ta'sirsiz o'zlarining professional vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimligini anglatadi.

Faqat mustaqil sud hokimiyatigina xolis, qonunga asoslanib, inson huquqlari va shaxsning asosiy erkinliklarini himoya qilgan holda odil sudlovni amalga oshira oladi. Bu vazifa samarali hal qilinishi uchun jamoatchilik sud organlari o'z funksiyalarini mustaqil va xolis amalga oshirish qobiliyatiga to'liq ishonishi lozim. Qachonki, ishonch yo'qolishni boshlasa, na sud hokimiyati institut sifatida, na alohida sudyalar bu muhim vazifani hal



qila olishadi yoki ularning bu vazifani ado etayotganiga shubha bilan qarashadi. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi sudyalarning shaxsiy foydasiga emas, balkim hokimiyatning suiste'mol qilinishidan insonlari himoya qilishga xizmat qiladi.

Shuning uchun, sudyalari kelib tushgan ishlarni ko'rib chiqishda, o'zining shaxsiy hohishidan kelib chiqib o'z bilganlaricha harakat qila olishmaydi, ularning burchi faqat qonunni qo'llash hisoblanadi. Shaxs huquqlarini himoya qilish sohasida, sudyalari har bir tegishli holatda inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro normalarni qo'llash uchun javob beradi.

Shuningdek, sud hokimiyati mustaqilligiga doir xalqaro tajribalar ham muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun 1985 yil Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Jinoyatchilikning oldin lish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 7-Kongressi "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari"ni qabul qilgan va Bosh Assambleya tomonidan bir ovozda maqullangan "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 1-prinsipiga asosan "Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar sud organlari mustaqilligini hurmat qilishlari va bunga rioya qilishlari shart". Bu juda chuqur ma'noga ega bo'lib, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatshu jumladan, politsiya, jazoni ijro etish tizimi, ijtimoiy sohalar, ta'lim tizimi chiqarilgan qarorlarga qo'shilmasalarda sud organlari qarorlarini hurmat qilishlari va unga rioya qilishlari shart. Sud hokimiyatiga nisbatan hurmat qonun ustuvorligini va inson huquqlarini ta'minlashda mutlaq zarur bo'lib, barcha hokimiyat tarmoqlari va barcha davlat muassasalari sud organlarining mustaqil qaror chiqarishlariga to'sqinlik qiladigan har qanday aralashuvlarning oldini olishi shart. Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 3-prinsipiga asosan "Sud organlari sud xususiyatiga ega bo'lgan barcha masalalarga nisbatan vakolatga hamda ularga berilgan ish qonunda belgilangan vakolatlarga kirish-kirmasligini hal qilishdan iborat mutlaq huquqqa egadir sud organlarining qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligi "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 4-prinsipida qo'shimcha tarzda mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra "Odil sudlov jarayoniga g'ayriqonuniy yoki ruxsat etilmagan aralashuvlar bo'lmasligi kerak hamda sudlar chiqargan qarorlari qayta ko'rilmaydi. Ushbu prinsip qonunga muvofiq amalga oshiriladigan sud organlari chiqargan hukmlarning sud tartibida qayta ko'rilishiga yoki yengillashtirilishiga to'sqinlik qilmaydi" Xalqaro huquqda sudyalarning qanday tayinlanishi lozimligi to'g'risida imperativ norma mavjud emas, deklarativ tusdagi tavsiyalar mavjud. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari"da sudyalari tayinlanishi yoki saylanishi to'g'risida holat ko'rsatib o'tilmagan. Faqatgina "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 10-prinsipida "Sud lavozimlariga tanlab olingan shaxslar yuksak axloqiy xislat va qobiliyat, shuningdek huquq sohasida tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo'lishlari lozim. Sudyalarni tanlashning har qanday usuli g'ayriqonuniy sabablar bo'yicha sudyalarning tayinlanishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlashi kerak. Sudyalarni tanlaganda ular irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa ahvoli bo'yicha ajratilmasligi kerak, biroq yuridik lavozimga nomzod tegishli mamlakatning fuqarosi bo'lishi kerakligi haqidagi talabga ajratish sifatida qaralmasligi lozim" 13 ligi qayd qilingan. Sudyalarni tanlab olishning



usullaridan qat'i nazar ularning professional tayyogarlik darajasi va axloqiy sifati tanlab olish uchun yagona mezon sifatida xizmat qilishi lozim.

Mamlakatimizda izchil davom etayotgan sud-huquq islohotlarida sud hokimiyati mustaqilligi, sudyalarning daxlsizligini samarali ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Buni Davlatimiz rahbari yaqinda bo'lib o'tgan yangi chaqiriq Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqida ham alohida qayd etib o'tdi. Aytildiki, Sudyalarning oliy kengashining barcha a'zolarini saylash tizimi yo'lga qo'yilgani sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Darhaqiqat, shunday. Sudyalarning oliy kengashi tarkibini demokratik tarzda shakllantirish nafaqat uning a'zolarining mustaqil faoliyat yuritishini, balki butun sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashni kafolatlaydi.

Qayd etish lozimki, Konstitutsiyaning avvalgi tahririda Sudyalarning oliy kengashi tarkibini shakllantirishga oid normalar belgilanmagan edi. Ushbu masala faqat "O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solingan bo'lib, endilikda mazkur norma Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Yangilangan Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashining maqomi sudyalarning hamjamiyatining mustaqil organi sifatida belgilangani, shuningdek, "sudyalarning muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmasligi" hamda "sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas"ligiga doir yangi normalar ham sud hokimiyati mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligining muhim konstitutsiyaviy kafolatlari hisoblanadi.

Xulosa va takliflar: Birinchidan, sud hokimiyati konstitutsiyada mustahkamlangan mustaqillikka ega bo'lishi lozim, u boshqa hokimiyat tarmoqlari ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo'lishi lozim; kinchidan, sud hokimiyati ichki masalalarda, sud ma'muriyatchiligida, suddagi ishlarning sudyalarning o'rtasida taqsimlanishida ham mustaqil bo'lishi lozim, uchinchi, sud hokimiyati moliyaviy masalalarda ham mustaqil bo'lishi lozim va chunki sud hokimiyati o'z funksiyalarini samarali amalga oshirishga yetarli mablag'ga ega bo'lishi lozim deb o'ylayman; to'rtinchidan, sud hokimiyati qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lishi lozim, hukumat va boshqa muassasalar sud organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni hurmat qilishi va unga rioya qilishlari shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 1985 yil 26 avgustdan 6 sentyabrgacha Milanda bo'lib o'tgan yettinchi kongressida qabul qilingan va 40/32-sonli rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan. // huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar: to'plam. -Toshkent: "Adolat", 2004. -B. 112.
2. Sulaymanov O.R. Sud hokimiyati mustaqilligiga oid xalqaro standartlar. /Monografiya -T.: «Tafakkur qanoti», 2020.
3. BMTning Sudyalarning va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego
4. Garsiya-Sayanning O'zbekistonga rasmiy tashrif natijalari bo'yicha dastlabki mulohazalar.// <http://www.un.uz/uzb/news/display/348>.